

**INGLIZ TILIDAGI “METAPHOR AND SIMILE” MAVZUSI HAQIDA
NAZARIY MA'LUMOT HAMDA MAVZUNI O'RGANISH JARAYONIDA
DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI**

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n. I.A.Jurayeva
irodajuraeva@gmail.com

O'zMU Xorijiy til va adabiyoti(ingliz tili) yo 'nalishi 2-bosqich talabasi
R.A.Qobuljonova
(e-mail: robiyy79@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqolada metafora va simile mavzusi haqida nazariy ma'lumotlar, xorijiy til- ingliz tili o'rganuvchilarining “Metaphor and simile” - “Metafora va o'xshatish” mavzularini o'zlashtirish jarayonida uchraydigan asosiy muammolari, xususan, bu ikki tushuncha o'rtasidagi farqni anglashda, ularning ramziy ma'nolarini to'g'ri talqin etishda duch keladigan qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Ushbu muammolarga yechim topish jarayonida metafora va o'xshatish tasviriy vositalarining nazariy jihatdan tahlili keltiriladi hamda dars davomida qiyosiy, vizual, tahliliy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning tasviriy ifoda vositalarini chuqurroq anglashiga va adabiy matnlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga, adabiyotshunoslik sohalarida nazariy bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: metafora, metaforik ifodalar, o'xshatish, badiiy vosita, nazariy tahlil, qiyosiy tahlil metodi, kognitiv nazariya, psixolingvistik tadqiqot.

Аннотация. В данной статье предпринят анализ основных проблем, возникающих у изучающих английский язык при освоении концептов метафоры и сравнения. Особое внимание уделяется трудностям в дифференциации данных тропов, а также корректной интерпретации их символической нагрузки. В рамках поиска путей решения обозначенных проблем предлагается теоретическое осмысление метафоры и сравнения как средств художественной выразительности. Обосновывается целесообразность применения в учебном процессе сравнительно-сопоставительного, визуального и аналитического подходов. Результаты исследования могут способствовать углублению понимания образной системы языка, совершенствованию навыков анализа текста и расширению теоретической базы в области литературоведения.

Ключавая слова: метафора, метафорические выражения, сравнение, художественное средство, теоретический анализ, метод сравнительного анализа, когнитивная теория, психолингвистическое исследование.

Abstract. This article analyzes the key problems encountered by English language learners when mastering the concepts of metaphor and simile. Emphasis is

placed on the difficulties in differentiating between these tropes and in adequately interpreting their symbolic content. In order to overcome these challenges, a theoretical analysis of metaphor and simile as means of figurative expression is proposed, and the use of comparative, visual, and analytical methods in the learning process is justified. The results of the study aim to deepen the understanding of the figurative system of language, improve skills in analyzing literary texts, and expand the theoretical base in the field of literary studies.

Key words: metaphor, metaphorical expressions, simile, literary device, theoretical analysis, comparative analysis method, cognitive theory, psycholinguistic research.

Kirish. Adabiyotda badiiy vositalar asarning mazmunini ochishda muhim rol o'ynaydi. Shunday vositalaridan biri metafora va o'xshatishdir. Uzoq yillar mobaynida o'zbek tilshunosligida ham metafora hamda o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalaridan keng foydalanib kelinmoqda. Bir narsa nomining ikkinchi narsaga shakl, rang va boshqa bir jihatdan o'xshashligi asosida ko'chirilishi metafora (grekcha *metaphora* – “ko'chma nom, ko'chirish”) deb ataladi [1;70]. Masalan, “*kumush qish*” birikmasida qish faslida atrof-muhit oq rangga kirgani uchun oq rangli kumush toshga o'xshatilyapti – bu rangga ko'ra o'xshatish hisoblanadi. Bundan tashqari, metaforaning paydo bo'lishi boshqa xususiyatlariga : vazifaning o'xshashligiga, shakl o'xshashligiga, tovush o'xshashligiga, turli taassurotlar o'xshashligiga ko'ra asoslanadi. O'xshatish tasvir vositasi metaforadan farqli o'laroq o'zi bilan o'xshatish vositalari- *singari, kabi, yanglig' so'zlari, -dek, -day* qo'shimchalarini ergashtirib keladi. Filologiya fanlari doktori N.Mahmudovning fikricha, o'xshatish to'rt unsurdan iborat: o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi[2]. Misol uchun, “Yo Rab, ul barg nasib etki, Navoiy topg'ay bog'i tavid gul-u bulbuldek barg-u navo” baytida o'xshatish subyekti- bog'i tavid , o'xshatish etaloni- nan, o'xshatish asosi- gul-u bulbul, o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi- -dek hisoblanadi.

Ingliz tilshunosligida ham o'zbek tilshunosligi kabi shunday “metaphor(metafora)” hamda “simile(o'xshatish) vositalari mavjud. “The word metaphor itself is a metaphor, coming from a greek term meaning “Transference(of ownership). The user of a metaphor alters the reference of the word, “carrying” it from one semantice “realm” to another[3]. Metafora so'zi grekchadan olingan bo'lib, egalikni ko'chirish, ya'ni so'z ma'nosini bir semantic ma'no doirasidan boshqasiga olib o'tishdir. Masalan, *time flies* atamasini tahlil qilsak, vaqt uchib ketadi, degan ma'no hosil bo'ladi. Vaqt reallikda uchmaydi, biroq uning tez o'tib ketishini, insonlar ba'zan ilg'ay olmay ham qolishi mumkinligi uchun “uchmoq” fe'li vaqtga nisbatan ishlatilgan. “The essence of metaphor is understanding and experiencing one kind of thing in term of another[4]”, ya'ni metaforaning mohiyati bir narsani boshqa narsa

orqali tushunishdir. “But, soft! what light through wonder window breaks? It is the east, and Juliet is the sun[5]” – “Qaysi yorug’lik bu derazadan uzilib chiqadi?, Bu-Sharqdir, Juliet esa-Quyosh”, ushbu jumlada Juliet quyoshga o‘xshatilgan hamda metafora hosil qilingan. Metaforalar tilga obrazlilik, badiiylik baxsh etadi.

Simile ham metaphor kabi o‘xshatish vositasi sanaladi: “*A simile is a figure of speech that makes a comparison between two different things using the words ‘like’ or ‘as’ to highlight a shared quality.*6]](o‘xshatish bu 2 turli narsalarni “like” “as(kabi)” so‘zlari yordamida bir-biriga taqqoslashdir): “He was as quiet as a mouse”- “u sichqondek jim edi”. Simile odatda ikki narsaning ma‘lum bir xususiyatini ochiq ta’kidlab taqqoslaydi: “my hair is as black as a coal” – soch rangining qoraligi ko‘mirning rangiga qiyoslanmoqda. Ingliz tilidagi ko‘plab o‘xshatishlarning o‘zbek tilidagi muqobillari mavjud, masalan, “As hungry as a bear” jumlasini “bo‘riday och”, deya tarjima qilish mumkin. Vaholanki, o‘zbek tilida ham xuddi shu ibora mavjud. Bundan tashqari, afsona, ertak, doston qahramonlariga nisbat berilgan o‘xshatishlarni ham ikkala til adabiyotlarida uchratish mumkin: “Alpomishday jasur” – o‘zbek tilida bo‘lsa, “As brave as Robin Hood” – ingliz tilida ishlatiladi. Ushbu misollar ingliz va o‘zbek tilshunosligida bir- biriga o‘xshash iboralar borligining isbotidir.

Metaphor va simile mavzulari bir-biriga o‘xshash ekanligini ta’kidlab o‘tildi. Ularning bu xususiyati o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan: 1)metaphor va simile tushunchalarini to‘la anglab yetmaslik;

2)metaforik ifodalarni o‘z ona tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish;

3)simile va metaforalarning kognitiv nazariya jihatdan nimani ko‘rsatib berishini bila olmaslik.

Birinchi muammoga yechim sifatida metafora hamda o‘xshatish tasvir vositalari haqida o‘quvchilarni nazariy ma‘lumot bilan ta‘minlash muhimdir. Ya‘ni metafora- bir narsaning nomini bir o‘xshashlik jihatidan boshqa narsaga ko‘chirishdir. Simile, ya‘ni o‘xshatishda bo‘lsa, bir narsani like yoki as, kabi yordamchilari yordamida boshqa bir narsaga qiyoslashdir. “theories are buildings; his theory collapsed, the theory needs more support ” – metafora, bu yerda nazariya xuddi bino, qulashi ham mumkin, deya tasvirlanmoqda. “As busy as a bee” misolida esa simile tasvirlangan, ma’nosi- ari kabi band bo‘lmoq(arilar doimo mehnat bilan mashg‘ul bo‘ladi) . Bu kabi misollarni jadvalga tizib berish orqali o‘quvchilarning mavzuni mustahkamroq tushunishlarini ta‘minlash mumkin, bu esa vizual xotiraning esda saqlashda muhim o‘rin tutishini ham bildiradi. Ta’kidlash joizki, metaforalarda bir narsa boshqa narsaning o‘zi sifatida tasvirlanadi, simile- o‘xshatishda esa bir narsa boshqasiga qiyoslanadi:

Metaphor	Simile
Time is Money	As white as a chalk
Ali is a walking dictionary	As easy as ABC
She is a night owl	As free as a bird
He is an early bird	As sharp as a razor
Be a coach potato	As blind as a bat
His home is prison	As wise as an owl
Her brain is a computer	Swim like a fish
Life is a roller-coaster	Fit like a glove
The supervisor is a dragon	As innocent as a lamb

Metaforalar va simile ning boshqa xususiyatlarini tushuntirish ham ushbu muammoga yechim bo'la oladi. Misol uchun, metaforalar faqat o'xshatish vositasigina emas, balki ma'lum xalqning dunyoqarashi, urf-odat-u, an'analari haqida ham ma'lumot beradi: "metaphors are grounded in culture and bodily experience-they arise from how humans interact with the world[7]. Misol uchun, o'zbek tilidagi metaforalarning ingliz tilidagi metaforalardan farqi bo'lishi mumkin, chunki bu ikki xalqda turlicha mentalitet, dunyoqarash, qadriyatlar mavjud. "Life is a journey" hamda "hayot-bu sinov" metaforalarini misol qilsak, ingliz xalqida hayot safarga o'xshatilib ko'proq ijobiy ma'no kasb etmoqda, o'zbek tilida esa sinov, imtihon kabi tushunilib, salbiy ma'noga ega bo'lmoqda. Metaforalarning tagma'nolarini topish uchun ushbu metaforalar mansub bo'lgan til xalqlari haqida ma'lumotga ega bo'lish ham muhim sanaladi.

Simile –o'xshatishlarning xususiyatlari ham ko'plab olimlarning diqqatini tortgan. Rus olimi Maslova o'xshatishlarning xususiyatlariga chuqur e'tibor bergan hamda ular haqida shunday yozgan:"o'xshatishlar qanchalik bir-biriga uzoq bog'langan bo'lsa, ularning ta'sirchanligini shunchalik yuqorilaydi". Ya'ni, o'xshatilayotgan narsalarning ma'nolari bir-biriga uzoq bo'lishi ularni yanada bo'yoqdorligini oshirar ekan.

Metaforalar har bir xalqning madaniyatini, dunyoqarashini ko'rsatib berganligi tufayli ularni bir tildan ikkinchi tilga bevosita tarjima qilish ularning ma'nosini noto'g'ri chiqarishga olib keladi. Ingliz tilidagi *time is money* iborasi o'zbek tiliga tarjima qilinsa, vaqt – bu pul degan ma'no kelib chiqadi. Uning asl ma'nosini anglash uchun pulning qanday xususiyati borligi haqida o'ylash lozim. Pul bu bebaho boylik, demak, *time is money* iborasi o'zbek tilidagi vaqt bebaho boylik metaforasiga to'g'ri kelar ekan. Metafora va simile o'rtasidagi asosiy farqlardan biri sifatida tafakkur va til darajasini ifodalashini ham ko'rsatish mumkin. Sababi, metaforalar ko'pincha insonning fikrlash tarzi sifatida qaraladi[8], simile-o'xshatishlar esa til birligi sifatida

baholanadi. Ya'ni, biz dunyoni metaforalar orqali idrok qilamiz. O'xshatishlar bo'lsa, konseptual metaforalarning lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Metafora va simile mavzularini yana ko'plab boshqa olimlar ham tahlil qilishgan. Jumladan, tilshunos olim Samuel Gluckbers metafora va simile ni psixolingvistik jihatdan o'rgangan[9]. Uning fikricha, metafora oddiy o'xshatish emas, ma'noni boshqa kategoriyaga kiritishdir. Gapda X obyekti Y toifasiga kiritiladi. Misol uchun, "My lawyer is a shark" gapida lawyer-advokat, shark esa yirtqich hayvon. Olimning fikriga ko'ra, advokat yirtqich- qattiqo'l, agressiv odamlar toifasiga kiritilmoqda. Simile bo'lsa X is like Y shaklida bo'ladi. Masalan, john is like a rock. Toshning chidamli, qattiqligi johnning xarakteri bilan moslanmoqda. Simileda ikki narsa bir-biriga taqqoslanadi, birlashtirilmaydi. Glucksberg *simile* ni til o'rganuvchilar, bolalar va kattalar osonroq tushunishini ham ta'kidlab o'tgan. Chunki u aniq o'xshashlikka ishora qiladi, metafora singari yangi kategoriya yaratmaydi.

Demak, o'rganuvchilar metafora hamda simile mavzusini o'zlashtirayotganida, avvalo, ular haqida to'liq nazariy ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Mavzuni mustahkamlash uchun esa ko'proq amaliy tomonlama yondashish – misollarni o'rganib, ularga oid topshiriqlarni bajarish zarur. Metaforalarning kognitiv nazariyasi to'g'risidagi ma'lumotlar, ularning xalqning urf-odatlarini ham o'zida namoyon qila olishidan xabardor bo'lish, o'xshatishlarning ko'proq til birligi sifatida qaralishini bilish ushbu mavzularni o'rganishga yanada yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, metaforalar hamda o'xshatishlar ikki narsani bir-biriga qiyoslash uchun ishlatiladi. Metaforalarda bir narsa nomi ikkinchi predmet nomiga o'xshashligi asosida ko'chsa, simile da like, as yordamchi so'zlari yordamida ikki predmet bir-biriga qiyoslanadi. Ikkisi ham adabiyotshunosikda, umuman, tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega. Sababi, ular orqali obrazlilik kuchayadi. Til o'rganuvchilarning metafora va simile mavzularini o'zlashtirishida paydo bo'ladigan muammolarni bartaraf etish uchun ushbu mavzularni har tomonlama ko'rib chiqish zarur sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq nashriyoti, Toshkent-2010, 70-b.
2. Mahmudov N. O'xshatishlarning til va nutqdagi o'rni. Mumtoz so'z, Toshkent-2017.
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/Metaphor>
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We live by. University of Chicago Press-1980.
5. William Shakespeare. Romeo and Juliet. By John danter-1597, part 2; scene 2
6. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/simile>
7. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We live by. University of Chicago Press-1980.

8. Khudayberganova D.S, Linguistics and cognitive characteristics of similes and metaphors in the Uzbek language. American Journal of Philological Sciences, ISSUE:No.04(2023). 33-40p.
9. Samuel Glucksberg, Understanding of Figurative Language: From Metaphors to Idioms. Oxford University Press, 2001. 61-85b.